O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING BUXORO
VILOYATI BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-06, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Idiyev Islom Ilhom O‘g‘li

2026 - yil 20 - maydagi 281867 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Toshkent shahar Sergeli tumani “Sadoqatli” MFY dagi 351-sonli umum ta’lim maktabini mukammal ta’mirlash

Buyurtmachi: VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI ENERGIYA SAMARADORLIGI MILLIY AGENTLIGI DM

Bosh loyihachi: "ARXITEKTURA YO`L LOYIHA" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Davlat byudjed mablag'lari

Bosh pudratchi: Tanlov savdolari natijalariga asosan

Qurilish turi: Mukammal ta'mirlash

Murojaat raqami: 115864

1. Loyihalash uchun asos.

1.1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2025-yil 7-maydagi 300-sonli qarori.

1.2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi “Energiya Samaradorligi Milliy agentligi”ning 2025-yil 14-oktabrdagi 01/524-sonli bayoni.

1.3 Loyiha topshirig‘i Vazirlar Mahkamasi huzuridagi energiya samaradorligi milliy agentligi direktori tomonidan tasdiqlangan, Toshkent shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i v.b. bilan hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi bosh boshqarmasi boshlig‘i bilan kelishilgan.

1.4 Buyurtmachi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi energiya samaradorligi milliy agentligi direktori tomonidan 2025-yil 08-avgustda tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi.

1.5 Buyurtmachi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi hamda "ARXITEKTURA YO‘L LOYIHA" MCHJ o‘rtasidagi 2025-yil 01–avgustdagi 57/2025-sonli loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma.

1.6 Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan Bino va inshootlar holati bo‘yicha 2025yil 11-sentyabrdagi 376i-sonli texnik hisoboti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1 Albom. Bosh reja, Tashqi oqava va suv ta’minoti, Tashqi issiqlik ta’minoti, Tashqi elektr ta’minoti bo‘limlari, maxsus spetsifikatsiyalar.

2.2 Albom. Mavjud maktab ta’mirlash ta’mirlash arxitektura qurilish bo‘limlari, Ichki elektr ta’minoti, Ichki suv va oqova suv ta’minoti, ichki issiqlik tizimi, yong‘indan ogohlantirish va

aloqa tizimi bilan Noananaviy energiyadan foydalanish quyosh panellari va maxsus spetsifikatsiyalar.

2.3 Albom. Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta’minlaydigan yechimlar (NBSH), qo‘shimcha inshootlar.

2.4 Bino va inshootlar holati bo‘yicha texnik hisoboti.

2.5 Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqsonli dalolatnoma.

2.6 Muhandislik-geologik xulosa.

2.7 Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Texnologik yechimlar. Maktab binolarining tarkibi va maydonlari umumiy ta’lim maktabining o‘quv jarayonini pedagogik tashkil etishning mazmuni va asosiy qoidalari, o‘quv rejasi va o‘quv dasturi bilan belgilanadi. IKN 04 — 17 maktablari va maktab-internatlar”. talablariga muvofiq tasdiqlangan loyiha topshirig‘iga muvofiq texnologik yechimlar qabul qilingan va Buyurtmachi bilan kelishilgan.

3.2. Hudud. Toshkent shahar Sergili tumani “Sadoqatli”MFYda joylashgan.

3.3. Bosh reja. Obyektning umumiy bosh rejasi amaldagi me’yorlarga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan. Loyihada qiyalik yaratish va mavjud relyef hududdan yomg‘ir suvini oqishi va yashil maydonlarni sug‘orish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilindi. Hududni obodonlashtirish loyihasi, transport aloqasi qulayligi va o‘t o‘chirish mashinalarining binolarga kirishi uchun qattiq sirtli yo‘llar va maydonlarni joylashtirish sharti bilan ishlab chiqilgan.

3.4. Loyihada loyiha topshirig‘iga hamda nuqson dalolatnomasiga asosan belgilangan tartibda barcha ish hajmi ko‘zda tutilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan.

Blok A- Buzib olish ishlari, beton otmoska qismlarni buzib olish, pardevorlarni buzib olish ishlari, pardevorlar uchun poydevor o‘rnatish, fasad yuzlarini pardozlash ishlari, tom qoplamasini buzib olish ishlari, pardevorlar qurish ishlari, himoya qatlamli tashqi pardozlash ishlari, pvx profilli derazalar o‘rnatish, derazalarga quyoshdan himoyalovchi jalyuzilar o‘rnatish, MDF va alyumin eshik romlari o‘rnatish, ichki pardozlash ishlari, to‘liq tarkibli relin, marmar va laminat pol qoplamalari qurish, kirish zinapoyasi va panduslari qurish, metal zinapoyalar va to‘siqlarini qurish, eshiklarga pesh ayvonlar qurish, yog‘och konstruksiyali tom qoplamasini yangilash va boshqa qo‘shimcha ishlar ko‘zda tutilgan.

Blok B — Buzib olish ishlari, beton otmoska qismlarni buzib olish, pardevorlarni buzib olish ishlari, pardevorlar uchun poydevor o‘rnatish, tom qoplamasini buzib olish ishlari, yerto‘la qismida himoyalash ishlari, fasad yuzlarini pardozlash ishlari, plitalarga elementlar qotirish, pvx profilli derazalar o‘rnatish, derazalarga quyoshdan himoyalovchi jalyuzilar o‘rnatish, MDF va alyumin eshik romlari o‘rnatish, ichki pardozlash ishlari, to‘liq tarkibli relin, marmar va sopol pol qoplamalari qurish, kirish zinapoyasi va panduslari qurish, zinapoya yuqorisini yopish, eshiklarga pesh ayvonlar qurish, yog‘och konstruksiyali tom qoplamasini yangilash, quyosh panellar uchun metal karkaslar qurish va boshqa qo‘shimcha ishlar ko‘zda tutilgan.

Blok V — Buzib olish ishlari birinchi va ikkinchi qavat, beton otmoska qismlarni buzib olish, pardevorlarni buzib olish ishlari, pardevorlar uchun poydevor o‘rnatish, fasad yuzlarini pardozlash ishlari, tom qoplamasini buzib olish ishlari, pardevorlar qurish ishlari, himoya qatlamli tashqi pardozlash ishlari, plitalarga elementlar qotirish, pvx profilli derazalar o‘rnatish, MDF va alyumin eshik romlari o‘rnatish, vitrajlar o‘rnatish, ichki pardozlash ishlari, to‘liq tarkibli relin, marmar va sopol pol qoplamalari qurish, kirish zinapoyasi va panduslari qurish, zinapoyalarga to‘siqlarini qurish, eshiklarga pesh ayvonlar

qurish, yog‘och konstruksiyali tom qoplamasini yangilash, quyosh panellar uchun metal karkaslar qurish va boshqa qo‘shimcha ishlar ko‘zda tutilgan.

Blok G – Birinchi va ikkinchi romlar buzib olish ishlari, pardevorlar o‘rnatish, buzib olish ishlari, beton otmoska qismlarni buzib olish, tom qoplamasini buzib olish, yerto‘la qismida himoyalash ishlari, fasad yuzlarini pardozlash ishlari, vitraj, pvx profilli derazalar o‘rnatish, derazalarga quyoshdan himoyalovchi jalyuzilar o‘rnatish, MDF eshik romlari o‘rnatish, ichki pardozlash ishlari to‘liq tarkibli relin, marmar va sopol pol qoplamalari qurish, kirish zinapoyasi va panduslari qurish, eshiklarga pesh ayvonlar qurish, yog‘och konstruksiyali tom qoplamasini yangilash, quyosh panellar uchun metal karkaslar qurish va boshqa qo‘shimcha ishlar ko‘zda tutilgan.

Blok D — Buzib olish ishlari, beton otmoska qismlarni buzib olish, pardevorlarni buzib olish ishlari, pardevorlar uchun poydevor o‘rnatish, tom qoplamasini buzib olish ishlari, fasad yuzlarini pardozlash ishlari, plitalarga elementlar qotirish, pvx profilli derazalar o‘rnatish, derazalarga quyoshdan himoyalovchi jalyuzilar o‘rnatish, alyumin eshik romlari o‘rnatish, ichki pardozlash ishlari to‘liq tarkibli relin pol qoplamalari qurish, radiatorlarni MDF panel bilan yopish ishlari, kirish zinapoyasi va panduslari qurish, eshiklarga pesh ayvonlar qurish, yog‘och konstruksiyali tom qoplamasini yangilash, quyosh panellar uchun metal karkaslar qurish va boshqa qo‘shimcha ishlar ko‘zda tutilgan.

Blok E — Tom qismini buzib olish, ummumiy buzib olish ishlari, beton otmoska qismlarni buzib olish ish turlari ko‘zda tutilgan shunigdek qurilish chiqindilarni yuklash va chiqarib tashlash ish turlari, fasad yuzlarini pardozlash ishlari, plitalarga elementlar qotirish, pardevorlar qurish, pvx profilli derazalar o‘rnatish, derazalarga quyoshdan himoyalovchi jalyuzilar o‘rnatish, MDF eshik romlari o‘rnatish, ichki pardozlash ishlari to‘liq tarkibli relin, marmar, yog‘och va laminat pol qoplamalari qurish, kirish zinapoyasi va panduslari qurish, eshiklarga pesh ayvonlar qurish, yog‘och konstruksiyali tom qoplamasini yangilash, quyosh panellar uchun metal karkaslar qurish va boshqa qo‘shimcha ishlar ko‘zda tutilgan.

Isitish tizimi – fankoyl qurilmalar o‘rnatish, polipropilen quvurlar o‘rnatish, quvurlar uchun qo‘shimcha elementlar o‘rnatish, shamollatgichlar va issiqlik nasolari o‘rnatish, metal g‘ilof o‘rnatish, MTB 250KVT ko‘mirda va gazda ishlaydigan qozon o‘rnatish va yer osti orqali metal quvurlar orqali ulanish rejalashtirilgan.

Sovuq suv ta’minoti — quvurlar o‘rnatish, qo‘shimcha elementlar o‘rnatish, kranlar o‘rnatish, vintellar o‘rnatish, metal g‘ilof o‘rnatish, sanitar jihozlar va santexnik jihozlari o‘rnatish ko‘zda tutilgan, shuningdek tomda quyosh suv isitish jihozlari o‘rnatish, temir beton vertikal quvurlar o‘rnatish suv hisoblagich o‘rnatish rejalashtirilgan.

Issiq suv ta’minoti – quyosh suv isitish kollektorlari o‘rnatish, elektr suv isitish elementlari o‘rnatish, quvurlar o‘rnatish, qo‘shimcha jihozlar o‘rnatish, nasoslar o‘rnatish, bosimli bak o‘rnatish, rele o‘rnatish, shamollatish jihozlari o‘rnatish, muftalar o‘rnatish, filtrlar o‘rnatish.

Oqova suv ta’minoti – Quvurlar o‘rnatish quvurlarga qo‘shimcha elementlar o‘rnatish, trap o‘rnatish, tekshiruv quvurlari o‘rnatish, qo‘l yuvish jihozlari, dush poddonlari, unitaz, smessitellar, yuvinish va sanitar jihozlari o‘rnatish, tashqi oqova suvlar uchun quvurlar, oqava suvlarni tozalash inshooti(LOS) va temir beton halqali elementlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Ichki elektr yoritish. Binolarni elektr yoritish QMQ 2.01.05-24 va QMQ 2.04.17-19 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Kirish moslamasi sifatida shkaflar o‘rnatish va taqsimlash shkaflari, boshqaruv shkaflari, Avtomatik kalitlarga ega elektron hisoblagichlar, yoritgichlar, o‘chirib yoqgich, har bir xonada yorug‘lik chiroqlari, rozetkalar, qozon uchun

elektr ta’minoti, energiyani tejaydigan lampalar bilan yoritish moslamalari taqdim etiladi. Loyihada elektr qo‘ng‘iroqlarni o‘rnatish, transformator 2GKTP-400-6/0,4U1 o‘rnatish, dekorativ ko‘cha yoritish chiroqlari o‘rnatish, elektr tokini yerga ulash, shuningdek tomda quyosh elektr energiyasi ishlab chiqadigan panellar o‘rnatish, yong‘indan ogohlantirish signal berish, aloqa tizimlarini o‘rnatish videokuzatuv, tashqi yoritgichlar o‘rnatish va boshqa qo‘shimcha ishlar rejalashtirilgan.

Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta’minlaydigan yechimlar.

Loyihada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 266-son qaroriga muvofiq zinalarda panduslar o‘rnatish,alohida harakati cheklanganlar uchun hojatxona o‘rnatish zaif ko‘ruvchilar uchun yo‘laklarda va eshik atrofida kontrast ranglar bilan ajratilgan va eshiklarni ostonasiz o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Shuningdek obodonlashtirish ishlari, dam olish ayvonlari qurish, mini futbol maydoni qurish, tashqi to‘siqlar va darvozalar qurish, tashqi sug‘orish tizimlari qurish, qozonxona qurish va boshqa qo‘shimcha ishlar ko‘zda tutilgan.

Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

–Poydevor tashqi qismni zichligi γ=33-50 kg/m3, qalinligi 200 mm bo‘lgan penopleks qoplam bilan qoplash;

–Devorda termoizolyatsiyasi zichligi γ=46-50 kg/m3, qalinligi 200 mm bo‘lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi).

– tomyopma termoizolyatsiyasi zichligi γ=46-50 kg/m3, qalinligi 200 mm bo‘lgan penopalistiriol plitalardan tom termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi).

– tomda quyosh panellari, quyosh kollektorlari o‘rnatilgan.

– FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va boshqalar.

– yoritish svetodiodli sensorli datchikli chiroqlar orqali bajarilgan va boshqalar.

Yong‘inga qarshi choralar. Loyihalashtirilgan bino va inshootlarning yong‘inga chidamlilik darajasi II. Loyiha odamlarni favqulodda chiqishlar orqali xavfsiz evakuatsiya qilishni nazarda tutadi. Barcha yog‘och konstruktiv elementlar antiseptiklar bilan singdirilgan va olovni to‘xtatuvchi moddalar bilan ishlov berilgan, qochish yo‘llaridagi devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan yasalgan, qochish yo‘llarining eshiklari chiqish tomon ochiladigan eshiklar bilan ta’minlangan. Binolar orasidagi yong‘inga qarshi tanaffuslar sanitariya me’yorlarini hisobga olgan holda ta’minlanadi, o‘t o‘chirish mashinalarining binolarga kirishi ta’minlanadi va o‘t o‘chirish uchun gidrantlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Smeta hujjatlari. Ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlari "SHNQ" smeta resurs normalari to‘plamlari bo‘yicha resurs usuli yordamida joriy narxlarda tuzilgan. Smeta hujjatlari doirasida quyidagilar taqdim etiladi: lokal resurslar qaydnomasi, zarur resurslar ro‘yxati, joriy narxlarda obyektning tavsiya etilgan narxini hisobkitobi. Obyektning tavsiya etilgan narxi, qurilish ishchilarining o‘rtacha oylik ish haqi, pudratchining "boshqa xarajatlari" ulushi, qurilish materiallari va uskunalari narxlari, mashinalarni va mexanizmlarini ekspluatatsiyasi, qurilish mahsulotlari uchun transport xarajatlari miqdori buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan 2026.05.19 dagi 19/1609-sonli

ma’lumotlarga asosan qabul qilindi. Tavakkalchlik koeffisiyenti qabul qilinmasin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyihada loyiha topshirig‘iga, belgilangan tartibda tasdiqlangan hajmlarga muvofiq ish hajmi ko‘zda tutilgan va buyurtmachi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **37 909 059 841** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **541 216 818** so'mga oshirilib,

38 450 276 659 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **29 575 870 096** so'm

Asbob-uskunalar: **4 754 734 065** so'm

QQS: **4 119 672 499** so'm

Obyektning pudrat tashkiloti tomonidan bajariladigan qurilish-montaj ishlari qiymati 12% QQS bilan: **35 767 244 886** so‘m.

Buyurtmachi tomonidan markazlashgan tartibda yetkazib beriladigan qurilish uskunalar qiymati 12% QQS bilan: **2 683 031 773** so‘m.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan 38 450 276 659 so‘mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzishga asos bo‘la olmaydi.Ekspertiza natijalari.

- Obyektning 12% QQSsiz, xarajatlarisiz joriy narxlardagi qiymati: **34 330 604 159** so‘m.

- Obyektning pudrat tashkiloti tomonidan bajariladigan qurilish-montaj ishlari qiymati 12%QQSsiz :

31 935 040 077 so‘m.

- Buyurtmachi tomonidan markazlashgan tartibda yetkazib beriladigan qurilish uskunalar 12% QQSsiz: **2 395 564 083** so‘m.

Ushbu belgilangan narx, yakuniy qiymatni belgilash, to‘lovlarni amalga oshirish va shartnoma tuzish uchun asos bo‘lmaydi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so‘ng, nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyiha va smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi.

Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalari bo‘yicha ish tartibida loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- Tom qismi va loyihaviy yechimlar qayta ko‘rib chiqildi
- smeta me’yorlari qabul qilingan loyihaviy qarorlarga muvofiqlashtirildi.
- Loyihaning qabul qilingan qarorlariga muvofiq ish hajmlari to‘g‘rilandi.
- Harakati cheklanagan va ko‘zi ojizlar uchun qo‘shimcha NBSH albomi ishlab taqdim qilindi.
- Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig‘i qayta rasmiylashtirilishi shart.

Loyiha yechimlarida konstruktiv yechim qurilish jarayonida o‘zgartirilgan taqdirda berilgan ijobiy xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

Buyurtmachi va loyihachi tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha va loyiha oldi hujjatlariga o‘zgartirish kiritish talabi qo‘yilgan.

Loyihachi ishchi loyiha hujjatlarni buyurtmachiga lakal xulosalarida ko‘rsatilgan sharhlar bo‘yicha to‘g‘rilab tasdiqlangan holda taqdim etishi lozimligi qayd etiladi. Ishchi loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘g‘irlanmasdan topshirilganda mazkur xulosa haqiqiy hisoblanmaydi.

Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilovasi 5-bob 36-bandi bo‘yicha mazkur ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **“Toshkent shahar Sergeli tumani “Sadoqatli” MFYdagi 351-sonli umum ta’lim maktabini mukammal ta’mirlash”** ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqib tasdiqlashga tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan "Obyektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik Nizom”ga va 31.01.2022-yildagi 46-son qaroriga muvofiq boshlang‘ich qiymat bo‘yicha qaror, amaldagi normativ hujjatlarning talablarini hisobga olgan holda, buyurtmachi tomonidan qabul qilinadi.

Ishtirokchi ekspertlar: Pondina Natalya Rafikovna, Viryaskina Zoya Petrovna, Muxammedov Timur Furkatovich, Kashapova Nadiya Muxtarovna, Djurayev Muxammadjon Akobirovich

Bosh ekspert **YOSHUZOQOV BAXTIYOR JUMAGELDIYEVICH**